

CHORVACHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH UCHUN BARQAROR CHORVACHILIK ISHLAB CHIQUARISH INDEKSIDAN FOYDALANISH

Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti

Katta o'qituvchi.

E-mail. idavlatbek15@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Andijon viloyatida barqaror chorvachilik ishlab chiqarish indeksidan (Sustainable Livestock Production Index – SLPI) foydalanish orqali tarmoqning barqarorlik holatini baholash va rivojlantirish yo'llarini aniqlash maqsad qilingan. Bu indeks ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni qamrab olgan kompozit indeks bo'lib, chorvachilik sektorining turli jihatlarini baholash imkoniyatini beradi. Shu asosda viloyatda chorvachilikni barqaror rivojlantirish uchun qaysi omillarni rivojlantirish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, dastlabki natijalar, hududlar, xo'jalik toifalari, metodologiya, milliy qishloq xo'jaligi statistikasi, tendensiyalar, statistik tahlil, iqtisodiy indeks, mehnat resurslari, bozor narxlari, ma'lumotlar ko'lami, fermer va dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kuzatuvlari.

АННОТАЦИЯ. Целью данной статьи является оценка стабильности отрасли и определение путей ее развития с использованием Индекса устойчивого животноводства (SLPI) в Андижанской области. Этот индекс представляет собой составной индекс, который охватывает экологические, экономические и социальные показатели и дает возможность оценить различные аспекты сектора животноводства. На основе этого будет показано, какие факторы необходимо разработать для устойчивого развития животноводства в регионе.

Ключевые слова: сельское хозяйство, лесное и рыбное хозяйство, предварительные итоги, регионы, категории хозяйств, методология, национальная сельскохозяйственная статистика, тенденции, статистический анализ, трудовые ресурсы, рыночные цены, данные ламы, фермерские и крестьянские хозяйства, сельскохозяйственные наблюдения.

ABSTRACT. This article aims to assess the stability of the industry and determine ways to develop it using the Sustainable Livestock Production Index (SLPI) in Andijan region. This index is a composite index that covers environmental, economic and social indicators and provides an opportunity to evaluate various aspects of the livestock sector. Based on this, it will be shown which factors need to be developed for the sustainable development of livestock breeding in the region.

Keywords: agriculture, forestry and fisheries, preliminary results, regions, categories of holdings, methodology, Sustainable Livestock Production Index, national agricultural statistics, trends, statistical analysis, labor resources, market prices, lama data, farms and peasant farms, agricultural observations.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi tarmog'i Respublikamizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish bilan boshqa soha va tarmoqlardan afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Mazkur tarmoq yuqori salohiyatga ega bo'lib, unda ehtiyojlarni qondirish uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi korxonalarida samaradorlikni oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun ulkan imkoniyatlar mavjud.

Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. U qishloq xo'jaligiga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi asosiy o'rni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishdan iboratdir.

Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go'sht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda ushbu sohada zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini kengaytirish bo'yicha tub islohotlar amalga oshirildi. Bu sa'y-harakatlar natijasini har bir chorvador o'z faoliyatida sezmoqda va his etmoqda.

Xususan, chorvachilik tarmog'i oxirgi olti yilda islohotlarga yuz tutdi. O'tgan davrda agrar tarmoqda katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'ldi. Ko'p yillar davomida chorvadorlarni o'ylantirib, tashvishga solib kelgan muammolar qisqa fursatda hal etildi, ularning xohish-istaklari, orzu-umidlari ro'yobga chiqa boshladi.

2022 yil 8 fevral kuni qabul qilingan "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori

sohada boshlangan islohotlarning uzviy davomi sifatida mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator istiqbolli chora-tadbirlarni belgilab berdi. Buni sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari kayfiyatida ham sezish mumkin.

Shuningdek, chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini ko'paytirish, shuningdek, aholining o'z xonadonida chorva mollari boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo'lgan talabni qondirish borasida qulayliklar, imtiyozlar, moliyaviy ko'mak va imkoniyatlar yaratilmoqda¹⁰.

Xususan, paxta va g'alla yetishtiruvchi subyektlar tomonidan minglab gektar sug'oriladigan yerda almashlab ekish orqali beda va chorva ozuqa ekinlari yetishtirilyapti. Bu bilan yiliga qo'shimcha ozuqa birligini jamg'arish imkoniyati yaratilmoqda. Paxta-to'qimachilik, g'allachilik va sholichilik klasterlari tomonidan chorvachilik komplekslari tashkil etilayotgani ham e'tiborga molik.

Chorvachilik xo'jaliklari tomonidan kredit va lizing shartlari asosida xarid qilingan qishloq xo'jaligi texnikalari kredit va lizing foizi xarajatlarining 10 foizidan ortiq qismi davlat budjeti hisobidan qoplab berilayotgani ham soha vakillariga katta ko'mak beryapti. Fermer xo'jaligi tomonidan xarid qilingan texnika uchun kredit yoki lizing yillik 22 foizdan olinsa, 12 foizi davlat budjeti hisobidan qoplanmoqda.

Ozuqa ekin maydonlarida yomg'irilatib va tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etgan chorvachilik xo'jaliklariga har bir gektar uchun 8 million so'm miqdorida davlat budjetidan subsidiya ajratilayotir. Hidroponika usulida chorva mollariga ozuqa yetishtirish uskunalarini xarid qilish xarajatining 20 foizi davlat budjeti hisobidan qoplab berilyapti.

Bular hali hammasi emas. Bundan tashqari, xoriждан olib kelinadigan, ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan, ozuqa ekinlarini ekish, yig'ish va ozuqa tayyorlashga mo'ljallangan qishloq xo'jaligi texnikalari, ularning butlovchi buyumlari va ehtiyot qismlari, istisno tariqasida 2025 yil 1 martga qadar bojxona to'lovlaridan va utilizatsiya yig'imidan ozod qilinmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab qo'shimcha qiymat solig'ini 180 kungacha bo'lgan muddatga kechiktirib to'lashga ruxsat berilyapti. Bu imtiyoz fermer xo'jaliklarining

¹⁰ Iskandarov, D. X. (2023). Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini statistik tahlil qilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlar indeks. *Science and Education*, 4(12), 686-693.

ko'plab zamonaviy texnika olib kirishi va ozuqa ekinlarini vaqtida yig'ib olishi natijasida faoliyati samaradorligi oshishiga xizmat qilayotir.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda respublikada jami 18 167 ta chorvachilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan qoramolchilik yo'nalishida 7 614, qo'y va echkichilik 3 263, yilqichilik 142, tuyachilik 52, parrandachilik 1 298, baliqchilik 4 829, asalarichilik 715 ta va quyonchilik 254 tani tashkil etmoqda.

“O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi Prezident qarori ham ushbu sohada keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Natijada 2022 yilda chorvachilikda umumiy qiymati 9,7 trln so'mlik 2 031 ta loyihalar amalga oshirilib, 160 mingga yaqin doimiy va mavsumiy yangi ish o'rinlari yaratildi. Joriy yilning o'zida esa 915,4 mlrd. so'mlik 406 ta loyihalar ishga tushirildi.

E'tiborli jihat, ushbu Dastur doirasida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 1,3 trln. so'mlik 43 ta chorvachilik komplekslari tashkil etilib, 26 ming boshga yaqin qoramollar parvarishi yo'lga qo'yildi. 2022 yilda 110 ta go'sht va 139 ta sut jami 249 mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida 19,6 bosh chorva mollari tarqatib berildi.

Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi sohasiga qaratilgan alohida e'tibor sababli o'tgan olti yil chorvadorlar uchun chinakam qo'llab-quvvatlash davri bo'ldi. Bu natijalar, yutuqlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Bunga mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasi, ayniqsa, chorvachilik tarmog'ida bo'layotgan o'zgarishlar, yangilanishlar imkon beryapti.

Hozir mamlakatimizda sohada bo'layotgan keng ko'lamli amaliy ishlar, erishayotgan natijalar oxirgi olti yildagi yangilanishlar natijasi, desam mubolag'aga yo'ymang. Sababi so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlar, odilona siyosati tufayli ko'p yillar davomida chorvachilik sohasida to'planib qolgan masalalarga barham berildi.

Bugun O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar shiddatidan odamning aqli shoshadi. Mamlakatimizda chorva ozuqa bazasini yanada ko'paytirish, chorva mollarining naslini yaxshilash, sohaga eng ilg'or usullarni joriy etishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bularning barchasi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, chorvachilik mahsulotlari eksportini yanada oshirish, eng muhimi, narx-navo barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, qishloq xo‘jaligi sohasiga oid bir nechta qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi, shu bilan birga tarmoqqa oid dasturlar va “yo‘l xarita”lari ishlab chiqilib, ular izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmonida [3] to‘qqizta ustuvor yo‘nalish belgilab berilgan bo‘lib, shulardan biri tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qaroriga [4] muvofiq, 2020-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning Milliy strategiyasi tasdiqlandi.

Mazkur qarorda statistika ma’lumotlari sifatini yanada yaxshilash, statistika ko‘rsatkichlarining to‘laqonli ma’lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sohalarda statistikaning zamonaviy usullarini joriy etish nazarda tutilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligini rivojlantirish, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha izlanishlari, ularning yozma va og‘zaki fikr mulohazalarini tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni kuzatish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o‘rganish jarayonida iqtisodiy indekslar usuli yoritib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sektorida chorvachilik muhim o‘rin tutadi. Mamlakat aholisi go‘sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning doimiy o‘sishi sharoitida chorvachilik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Andijon viloyati o‘zining qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish salohiyati bilan ajralib turadi, ammo bu hududda chorvachilikning samarali va ekologik jihatdan barqaror shakllarini rivojlantirish hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan¹¹.

Mazkur maqolada Andijon viloyatida barqaror chorvachilik ishlab chiqarish indeksidan (Sustainable Livestock Production Index – SLPI) foydalanish orqali tarmoqning barqarorlik holatini baholash va rivojlantirish yo‘llarini aniqlash maqsad qilingan. Bu indeks ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni qamrab olgan kompozit indeks bo‘lib, chorvachilik sektorining turli jihatlarini baholash imkoniyatini

¹¹ Iskandarov, D., & Haydarov, M. (2022). TAQSIMOTNI NORMALLIKKA TEKSHIRISHDA MUVOFIQLIK ALOMATLARINING BA’ZI MASALALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 405-408.

beradi. Shu asosda viloyatda chorvachilikni barqaror rivojlantirish uchun qaysi omillarni rivojlantirish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Barqaror chorvachilik ishlab chiqarish indeksi (SLPI) chorvachilik sektorining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini umumlashtirib baholashga yordam beradi. Bu indeks quyidagi uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

Atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda chorvachilik faoliyatini yo'lga qo'yish va tabiiy resurslarni oqilona ishlatish.

Ishlab chiqarish samaradorligi va daromadlilikni oshirish.

Chorvachilik sektorida bandlikni oshirish, daromadlarni adolatli taqsimlash va qishloq aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash.

Andijon viloyatida ushbu indeksdan foydalanish orqali chorvachilik tarmog'ining hozirgi holatini baholash va rivojlanish strategiyalarini aniqlash mumkin.

Andijon viloyati O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, aholisi zich va qishloq xo'jaligi faoliyati keng tarqalgan. Chorvachilik bu viloyatda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda muhim o'rin tutadi, ammo so'nggi yillarda bir qator muammolar kelib chiqmoqda va biz bu muammolarni sanab o'tamiz:

- Viloyatda yerlar va ozuqa resurslari cheklangan bo'lib, bu chorvachilikni ekologik jihatdan barqaror qilishda qiyinchiliklar tug'diradi.
- Chorvachilik faoliyatidan chiqayotgan chiqindilar va ifloslanish hudud ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
- Viloyatda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermerlar va xonadonlar uchun yetarli yordam dasturlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetishmaydi.

Barqaror chorvachilik ishlab chiqarish indeksini qo'llash orqali viloyatda quyidagi afzalliklarga erishish mumkin:

Ekologik barqarorlikka erishish: Tuproq, suv va havo sifatini yaxshilash orqali atrof-muhitga zarar yetkazmasdan chorvachilikni rivojlantirish mumkin.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish: Chorvachilikka yo'naltirilgan resurslarni samarali ishlatish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlar sifatini oshirish.

Ijtimoiy farovonlikni ta'minlash: Mahalliy aholi bandligini oshirish va ularning daromadlarini yaxshilash orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash.

Barqaror chorvachilik ishlab chiqarish indeksini qo'llash orqali tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar

Ekologik choralar: Atrof-muhitni himoya qilish maqsadida chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish.

Iqtisodiy choralar: Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ozuqa yetishtirishni yaxshilash va chorvachilikka ajratilgan resurslardan samarali foydalanish.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Kichik fermerlar va mahalliy aholi uchun qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, bandlikni oshirish va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohot natijalari tezkor, aniq va haqqoniy statistik raqamlarda o'z ifodasini topadi. Statistik raqamlarning haqqoniy va shaffof bo'lishi hukumat tomonidan qishloq xo'jaligini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim sektori bo'lgani bois ishonchli va keng qamrovli milliy qishloq xo'jaligi statistikasiga ehtiyoj katta.

Shundan kelib chiqib, agrar sohada amalga oshirilayotgan islohot natijalarini statistik hisobini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- milliy qishloq xo'jaligi statistikasi tizimini ishonchli va keng qamrovli bo'lishini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi kuzatuvlarining tashkiliy va metodologik asoslarini yanada takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligida kuzatilayotgan tendensiyalarni doimiy tahlil qilib borish;
- qishloq xo'jaligining tarkibiy holatini baholash, sohani xalqaro tajribalarda foydalaniladigan statistik ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyatini yaratish, qishloq xo'jaligi sohasida tanlanma kuzatuvlarni amalga oshirish uchun statistik ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida qishloq xo'jaligi sohasida yalpi ro'yxatga olishni o'tkazish;
- ro'yxatga olish natijalarining to'liqligini ta'minlash, ularni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun zarur infratuzilmani yaratish va yangi texnologiyalarni joriy qilish¹²;

Andijon viloyatida barqaror chorvachilik ishlab chiqarish indeksidan foydalanish orqali chorvachilik sektorini rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Ushbu indeks yordamida ekologik xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglik jihatlari baholanib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu esa viloyatdagi chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish va uni yanada barqaror qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

¹² Dilshodbek, G., & Iskandarov, D. X. (2021). CHIZIQLI REGRESSIYANI QISHLOQ XO'JALIGI MASALALARINI YECHISHGA QO'LLASH. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 801-807.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni// Xalq so‘zi, 29.01.2022-yil. TARMOQLAR VA SOHALAR
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi// Xalq so‘zi, 20.12.2022-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son farmoni// Xalq so‘zi, 24.10.2019-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qarori// Xalq so‘zi, 04.08.2020-yil.
5. Iskandarov, D. X. (2023). Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini statistik tahlil qilishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlari indeksi. *Science and Education*, 4(12), 686-693.
6. Iskandarov, D., & Haydarov, M. (2022). TAQSIMOTNI NORMALLIKKA TEKSHIRISHDA MUVOFIQLIK ALOMATLARINING BA’ZI MASALALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 405-408.
7. Dilshodbek, G., & Iskandarov, D. X. (2021). CHIZIQLI REGRESSIYANI QISHLOQ XO‘JALIGI MASALALARINI YECHISHGA QO‘LLASH. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 801-807.